

## MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH ASOSIDA TALABALARNING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

*Saitkulova Nazokat Rahmonovna*

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti  
Qurolli Kuchlar xizmatchisi p.f.f.d.,(PhD)*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish metodikasi to'g'risida so'z yuritilgan. Talabalar mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otuvchi motivlar ko'rsatilgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagogning mustaqil faoliyatidagi sifatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, akademik mobillik, metodika, kompetensiya, shakl, usul, kasbiy xususiyat

**Abstract.** This article discusses about the methodology for the development of academic mobility of students on the basis of the organization of independent study. Motivations are shown that students are interested in getting an independent study. In the organization of independent study, the qualities of an educator in independent activities are highlighted.

**Key words:** independent study, academic mobility, methodology, competence, form, method, professional characteristic

**Kirish.** Mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish mazmuni, shakl va metodlari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish muhim hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish muammolari, mazmuni, holati va ularning tarkibiy qismlarini nazariy jihatdan tahlil qilish;

- mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish bilan bog'liq muammoli topshiriqlarni ishlab chiqish;

- mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish metodikasi asosida amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish.

Mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirishda talabalarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilish, mavzuga oid ma'lumotlarni internet orqali izlash, o'qib o'rganish, mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarurligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim.

Mustaqil ta'lim talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilishga; o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga; ularning o'qitiladigan fanlarga oid bilimlarini rejalashtirishga; dars va darsdan tashqarida

olingan bilimlarni tartibga solishga, shuningdek nazorat kilish uchun ongli ravishda foydalana bilishga; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish masalasini nazariy va metodik jihatdan ishlanganlik darajasini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- fanlarni o'qitishda talabalarda mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida muammoli o'qitish tizim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish;

- ta'limda talabalarning mustaqil ishlashlariga imkon beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlash chora tadbirlarini belgilash;

- talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi maxsus elektron dasturlar va qo'llanmalar yaratish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutadi. Bu esa ta'limda talabalar mustaqil ta'limi mazmunini ishlab chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Albatta, talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq hozirgi vaqtda mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, uning mazmunini tahlil qilish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu va shunga o'xshash boshqa masalalar bu borada qator pedagogik muammolar mavjudligini bildiradi.

Mazkur masalalarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish va buning uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish zarurati; bu masalani amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi; ularga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalarning yetarli emasligi kabi muammolar alohida dolzarblik kasb etadi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida N.A.Muslimov [1], O.A.Qo'ysinov [2], Z.Nishonova [3], J.Tolipova [4], U.K.Tolipov [5], N.Xalilov [6], Sh.Yunusova [7], S.I.Demidov [8] kabilar o'z ishlarida tadqiq qilganlar.

Mustaqil ta'limni o'rganish holati

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda uning samaradorligini ta'minlashga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida o'z o'quv-bilish kompetensiyalarini oshirish ustida ishlamasligi, axborot resurs markazlarida mustaqil ta'limga oid adabiyotlarning

yetishmasligi, pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olmasliklari muammosi mavjud. Ushbu muammoni ijobiy hal qilish uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishini izchil tizimga keltirish kerak.

Pedagog olim S.Matjonovning tadqiqot ishi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda darslarda talabalarning og'zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkuri, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan talaba ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi [9].

T.R.Niyazmetovanning o'zbek tili va adabiyoti darslarida mustaqil ish bajarish uslubiyati mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida umumiy o'rta ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo'llari va uning talabani faollashtirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Garchi tadqiqotda mustaqil fikrlash masalasi yetakchilik qilmasada, talabaning mustaqil ishlash faoliyati o'z-o'zidan u yoki bu darajada mustaqil mulohazani talab qilishi ko'zga tashlanadi [10].

### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Talabalar mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otuvchi kuch, motiv sabablarga bog'lik holda ular o'z oldilariga mustaqil ta'lim mazmunini tashkil etuvchi maqsad va vazifalarni belgilab oladilar. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

- mustaqil faoliyat olib borishda muhim hisoblangan siyosiy mustaqil ta'lim, zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan munosabat;
- tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borish, talabaning mustaqil ta'lim olishlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik davridagi kasbiy mustaqil ta'lim;
- o'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy-hayotiy rejalari, shaxsiy qiziqish asosida yo'naltirilgan mustaqil ta'lim;
- o'z iste'dodini va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish bilan bog'lik bo'lgan mustaqil ta'lim;
- o'z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil ta'lim[2]:

Pedagog o'z mustaqil faoliyatida ma'lum maqsad asosida va ma'lum tartibda quyidagi sifatlarini shakllantirib borishi kerak:

- talabaning intilish va qiziqishini his qilish, tushunish hamda ehtiyojini inobatga olish;
- talaba bilan emotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta'sir etish;
- pedagog o'zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usul va yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik obyektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak;
- pedagog aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq;

- pedagog o'z bilimni oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etishi va ma'lum maqsadga yo'naltirishi zarur. Buning uchun u: ijodiy izlanishlar jarayonini boshqara olishi, uning samaradorligi pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarlikka bog'lik bo'lishini esda tutishi lozim.

Tahlil va natijalar Analysis and results).

Pedagog olim N.A.Muslimovning tadqiqot ishi [1] da mustaqil ta'lim faoliyatining uchta bosqichi ajratilib ko'rsatilgan.

*Birinchi bosqichida* fanlarga bo'lgan qiziqish asosiy manba bo'ladi. Biroq bu qiziqish yetarli darajada chuqur bo'lmaydi. Bunda ham maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, maxsus tashkiliy, mustaqil ta'lim faoliyati mavjud emas. Faqat kitoblar o'qish, maxsus ma'ruzalar tinglash, mustaqil tafakkur faoliyatiga intilish bo'ladi. Shaxsning mustaqil ta'lim olish faoliyatiga qiziqishi ham mujassamlashmagan, u ham ko'plab qo'shimcha, keng miqyosli ishlarni amalga oshiradi, biroq bularni uzviy ravishda emas, balki ba'zan va chuqur bilimga ega bo'lmay amalga oshiradi.

*Ikkinchi bosqichida* talaba mustaqil o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yib, mustaqil faoliyat mazmunini anglab, tashkiliy ishlarni amalga oshirib boradi. Bu davrda u shaxsiy-hayotiy reja va g'oyalarni amalga oshirish vositasi sifatida kasbiy vazifalarni hal etadi. Bu bosqichda talabaning mustaqil faoliyatga qiziqishi jiddiylashadi, fanning alohida qismini o'rganish, bu orqali o'z hayotiy rejalarini tuzish, biror kasbni egallashga bo'lgan qat'iy istak asosiy o'rin tutadi. Ongli ravishda qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanadi, o'z g'oyalarini amalga oshirish vositasiga aylangan mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishga intilish paydo bo'ladi. Mustaqil ta'limni ongli ravishda tashkil etadi.

*Uchinchi bosqichida* talaba mustaqil ta'lim bilan bir necha yil shug'ullanib, o'z kasbiy maqsad va faoliyati yo'nalishlarini, vazifalarini aniq belgilash malakasiga ega bo'ladi. Mustaqil bilim olish darajasini baholash o'z-o'zini baholash va pedagog tomonidan baholash asosida qiyoslanadi.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations).

Shunday qilib, mustaqil ta'limni tashkil etishasosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish, ularda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilish, mavzuga oid ma'lumotlarni Internet orqali izlash, o'qib o'rganish, mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirish zarurligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilishga; bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga; ularning bilimlarini rejalashtirishga; darsda va darsdan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solishga, shuningdek nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilishga; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish masalasini nazariy va metodik jihatdan ishlanganlik darajasini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz: mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida loyihalash

